Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

УЧЕНЫЙ — ТОТ, КТО
МНОГО ЗНАЕТ ИЗ КНИГ;

ОБРАЗОВАННЫЙ — ТОТ, КТО УСВОИЛ СЕБЕ ВСЕ САМЫЕ РАСПРОСТРАНЕННЫЕ В ЕГО ВРЕМЯ ЗНАНИЯ И ПРИЕМЫ;

ПРОСВЕЩЕННЫЙ — ТОТ, КТО
ПОНИМАЕТ СМЫСЛ СВОЕЙ ЖИЗНИ.

LEV TOLSTOY
(1828-1910)



OKTYABR

№45

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-14

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-14

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 45-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаххоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

**1. Norbo'tayeva Muxlisa, Kasimova Aziza**
AYOLLAR BLUZKASINING ZAMONAVIY YECHIMI ........................................................ 7
**2. Norbo'tayeva Muxlisa, Kasimova Aziza**
AYOLLAR ZAMONAVIY BLUZKASINI LOYIHALASH ................................................. 10

## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

# AYOLLAR BLUZKASINING ZAMONAVIY YECHIMI

**Norbo’tayeva Muxlisa, Kasimova Aziza**
Toshkent to’qimachilik va
yengil sanoat institute
Telefon: +998 90 817 69 57
kasimova_aziza80@mail.ru

**ANNOTASIYA:** Ushbu maqolada bluzkaning kelib chiqish tarixi, zamonaviy moda yo’nalishi bo’yicha bluzkalarni an’anaviy ko’rinishi, tendensiyadagi ranglari haqida ma’lumotlar berilgan. Ijodiy manba sifatida “ORANDO” balig’i olingan va zamonaviy bluzka dizayn-loyihasi ishlab chiqilgan.

**KALIT SO’ZLAR:** biuzka, kiyim, eng, yoqa, kompozitsiya, liyihalash, dizayn, ipak, atlas, ko’ylak.

Bluzka (fransuzcha Blouson-ko’ylagi) qisqa o’rnatilgan ko’ylak ko’rinishidagi yupqa matodan tikilgan yengil ayollar kiyimi. Bluzkada yenglar, yoqalar va manjetlar mavjud. Bluzkalar tugmachalar bilan mahkamlanadi. Ko’pincha burmalar, jingalak va valanlar bilan bezak beriladi. XVIII-asrning oxirida bluzka ayollar garderobining elementi sifatida muhim ahamiyatga ega emas edi. U bazida muayyan uslubdagi kiyimlarda paydo bo’lib turar edi. XIX-asr Yevropa ayollar kiyimlarida ko’ylak mustaqil qismga aylandi. Ammo kiyimning yubka va bluzkaga bo’linishi 1840-yillarning o’rtalarida sodir boldi. Shu bilan birga bu moda butun Yevropada, shuningdek, Shimoliy Amerikaning butun joylariga tarqaldi. XIX-asrning 40-yillarida, Yevropada ayollar juda keng balon yenglari bilan ruffles, burmalar va dantellar bilan bezatilgan, mahkam o’rnatilgan bluzkalar kiyib yurishgan. Oldida to’r, dantel va boshqa bezak elementlari bilan bezatilgan baland yoqali bluzkalar zamonaviy davrning kelishi bilan, taxminan 1870-yilda paydo bo’la boshladi. 1900-1910-yillarda bluzkalar ichki kiyimning elementi hisoblangan. Chunki ular kashtado’zlik bilan murakkab bezaklarga ega bo’lgan va bu ichki kiyimlarga xos bo’lgan elementlar edi. Shu bilan birga o’ziga xos uslub –GIBSON uslubi shakillandi. Bu uslubdagi bluzkalar burmali va plitkali bo’lgan. Ular kunduzgi partiyalar uchun ham, oqshom uchun norasmiy kiyim sifatida ham juda mashhur bo’lgan. 1920-yillarda yubkalar qisqartiriladi, bluzkalar esa uzaytirilgan shaklda kiyish moda tusiga kiradi. 1930-yillarda esa teskari jarayoni kuzatiladi. Yubkalar uzaygan, bluzkalar esa qisqargan ko’rinishda bo’ladi. 1950-yillarda taniqli bo’lgan COCO-Chanelning bluzkalari – kamon yoqali bolgan oq ipakli. Keyingi yillarda uslublar, matolar, bezaklar o’zgaradi, lekin bluzka modadan tashqariga chiqmaydi. Bluzkalar 1950-yillarda modaga kirdi va hech qachon modadan tashqariga chiqmaydi [1].

XIX-asrda bluzkalar moda sifatida Yevropaga keng tarqaldi va ayollar bluzkalari modachilar garderobining asosiy elementiga aylandi. Hozirgi paytda har bir ayolda bluzka bor. Birinchi bluzkalar Qadimgi Misr davrida paydo bo’lgan, ammo ayollar garderibiga XIX-asrda kiyim elementi sifatida kirib kelgan.Bluzkalar yengil va vaznsiz matolardan tikiladi. Bluzkaning har doim yenglari, manjetlari va yoqasi bo’ladi. Ayollar bluzkasida tugmalar chap tonga o’rnatilgan bo’ladi, erkaklarnikida esa aksincha. Bluzkalar ko’pincha paxta yoki ipak matodan tayyorlanadi. Ayollar bluzkasi tugmalari chap tomonga o’rnatilishining bazi bir sabablari ayollar va erkaklar ko’ylaklarini ajrata olish uchun joriy qilgan deb taxmin qilinadi. Bluzkalar har doim modada bo’lib, dizaynerlar har mavsumda yangidan yangi modellar va uslublarni taqdim etib bormoqda.

2022-2023-yilgi Qish mavsumida moda bluzkalarining tendensiyalari; to’liq shaffoflik, hajim, neon soyalar, tik yoqa (воротник стойка), volanlar, ipak va atlas, poloska, to’liq shaffoflik, shifon, organza, tul va ipak matolaridan tikilgan bluzkalar bahor-yoz mavsumi modasiga aylandi. Ushbu moda tendensiyasi ketma ket ikki mavsum davomida tendensiyalarning eng yuqori

pog'onasida bo'ldi va kuzga kelib ham u e'tibordan chetda qolmaydi. Dizaynerlar Christian Dior, Chanel va Valentino nozik matolarni katta bosma naqsh bilan birlashtirib, ushbu zamonaviy bluzkalarni mini yubkalar, pallazo shim va hokazolar bilan kiyishadi.



1-rasm. Moda bluzkalari kuz-qish Chanel, Valentino, Christian Dior

Bluzkalar-tarixan Barrel usuli bilan bog'liq bo'lib, ular asosan 1890- yillarga moda ayollar garderobining bir qismi bo'lib kelgan .Bundan oldin ular ba'zan 1860-yillardagi Garibaldi ko'ylagi kabi dehqon yoki an'anaviy kiyimlarni aks ettiruvchi uslublarda norasmiy kiyinish uchun mashhur bo'lgan (1-rasm).

Hajm. Bluzkalarda hajm kengaygan, puflangan yenglar va bo'rttirilgan hajmda aks etdi. Xuddi shu uslubda Vague Aksu kolleksiyalari taqdim etildi va Patou brendi ko'k paxta modelini namoyish etdi [2].

Bu ko'rinishdagi bluzkalarni dizaynerlar eng yorqin soyalar bilan qoplashga intilishgan. Limon rang , ohak, yashil olma, to'q sariq va och yashil bluzkalarning eng mashhur va zamonaviy ranglariga aylandi. VOLAN-Ruffles, burmalar va volanlar yana e'tibor markazida. Izabel Marat va Blumarinening 2022-2023-yilgi yangi to'plamlarida ''HAYAJONLI'' dekorli bluzkalarning romantik va nazokatli uslublari taqdim etildi (2-rasm).

Tik yoqa. Yangi mavsumda dizaynerlar Adam Lippes, Issey Miyake, Akris bluzkalar va yoqa ko'ylaklarining asosiy elementlaridan biridan voz kechishni taklif qilishdi. Buning evaziga ular "STEND" yoqalarni taklif etishdi.Unda malum bir cheklov yuq. Oq qora "Tik yoqa"li modellar biznes garderobi uchun, ranglilar esa kundalik uchun ham mos keladi [3]. Albatta bluzka har bir ayolning garderobida bo'lishi kerak. Huddi COCO-Shanelning taniqli bo'lgan qora ko'ylagi singari. Akris, Issey Miyake kolleksiyalarida bu uslubdagi liboslarni ko'rishimiz mumkin.

**''PATOU BRENDI '' ko'k paxta modeli**




2-rasm. Neon soyalar

Ipak va atlas. Atlas va ipakdan bo’lgan bluzkalar – bu matolar o’ziga jalb qiluvchi , ohista porlovchi va o’z go’zalligi va nafosati bilan hayratda qoldiradi. Bu matolardan foydalanga Fendi, Private Policy va Jil Sanderning asl dizaynlariga e’tibor qaratamiz, ularni tor yubka yoki keng shim bilan kiyish mumkin [4].

Xulosa

MODA –bu o’zgaruvchan hodisadir.Bichim o’zgarishi, tendensiyaning o’zgarishi ma’lum bir madaniyat va didning yuqoriga shakillanib o’sib borishidir.Zamonaviy moda nafaqat garderobdagi kiyimlarda ,balki tashqi ko’rinishda , zargarlik buyumlarida va boshqalarni narsalarni ham o’z ichiga oladi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Пармон.Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. – М.: «Триада плюс», 2002. – 312 с.
2. http://www.fashion-woman.com
3. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BB%D1%83%D0%B7%D0%BA%D0%B0
4. https://ussur-ds106.ru/uz/istoriya-bluzki-istoriya-zhenskoi-bluzki-uslovno-vse-bluzki-mozhno-razdelit-na

# AYOLLAR ZAMONAVIY BLUZKASINI LOYIHALASH

**Norbo'tayeva Muxlisa, Kasimova Aziza**
Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat institute
Telefon: +998 90 817 69 57
kasimova_aziza80@mail.ru

**ANNOTASIYA:** Ushbu maqolada bluzkaning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ijodiy manba sifatida "ORANDO" balig'i olingan va zamonaviy bluzka dizayn-loyihasi ishlab chiqilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** biuzka, kiyim, eng, yoqa, kompozitsiya, liyihalash, dizayn, ipak, atlas, ko'ylak.

Blous (yoki fransuzcha ''Blouson,,) xotin-qizlarning yupqa matodan qilingan yengil ko'ylagidir. Bluzkada yeng, yoqa va manjet qismlari shu bilan birga tugmalari ham bo'ladi.Bluzkalar tarixning ma'lum bir yillarida dastlab dehqonlar kyimi, mehnat kiyimi , keyinchalik harbiylar kiyimi sifatida ham rol o'ynagan.Ammo yillar davomida hozirga kelib bluzka ayollar garderoboning muhim va ajralmas qismiga aylanib ulgirdi.Bluzka tarixiga nazar solsak, ,,bluzka''shu bilan birga barcha kiyim matolari zig'ir va kanob tolalaridan tayyorlangan.Bu ko'rinishdagi bluzka matolari qo'pol va dag'al bo'lgan.Hozirgi paytda bluzkalar nafis bo'lgan yupqa shifon yupqa va havoni yaxshi o'tkazuvchan bolgan matolardan (paxta va ipak) tikilmoqda. XVIII-asrning oxirida bluzka ayollar garderobining elementi sifatida muhim ahamiyatga ega emas edi. U bazida muayyan uslubdagi kiyimlarda paydo bo'lib turar edi. XIX-asr Yevropa ayollar kiyimlarida ko'ylak mustaqil qismga aylandi. Ammo kiyimning yubka va bluzkaga bo'linishi 1840-yillarning o'rtalarida yuzaga kelgan. 1950-yillarda taniqli bo'lgan COCO-Chanelning bluzkalari – kamon yoqali bolgan oq ipakli bluzkalar bo'lgan.

Bluzkaning kelib chiqish tarixi Qadimgi Gretsiyaga borib taqaladi.Biroq ularda tonika ko'rinishida bo'lgan va hozirgi ayollar garderobining zamonaviy ko'rinishing otasi deb ham ataladi.Milloddan avvalgi 14-asrda SHimoliy Germaniyada yashovchi xalqlar ham bluzkaga o'xshash kiyimlarning asoschisi sifatida qaraladi.Ularda kiyimning bu elementi ichki kiyim sifatida ishlatilgan va ularga kashtachilik bilan ishlov berilgan.Birinchi tunika ikkita choyshabdan qilingan bo'lib, unda yenglar bo'lmagan.Keyinchalik Rimliklar yengli kiyim tikishgan .Ular uchun bunday kiyim ancha qulaylik keltirgan.Bu bluzkaning ilk kelib chiqishi mumkin bo'lgan farazlar edi.

Birinchi ayollar bluzkasi 19-asr oxirida Parijlik ixtirochi va novator Pol Poiret tomonidan yaratilgan bo'lib, u ko'ylakni bluzka va yubkaga bo'lish g'oyasini ilgari surgan. Kiyimning yubka va bluzkaga bo'linishi 1840-yillar o'rtalarida sodir bo'lgan ham deyiladi.Ammo o'sha yillarda ayollar bluzkani sovuqqonlik bilan qabul qilishgan .Keyinchalik yillar davomida bu kiyim zamonaviy va ancha qulayligini tushinib yetishdi va ayollar garderobidan joy ola boshladi.Hozirgi zamonaviy duynoda garderobida bluzkasi bo'lmagan ayollarni topa olmaymiz.Bluzka ayollarning garderobidan huddi COCO SHanelning mashhur qora koylagi kabi joy olgan.Moda olamini kuzatar ekanmiz bluzka mashhur kutyurelar kolleksiyalarining ko'pchiligida mavjud bo'lib ,u e'tibordan chetda qoldirilmaydi.

Klassik ayollar bluzkasi- buni birinchi bo'lib payqagan COCO SHanel bo'lib,uning narsalarga professional nuqtai nazari, biznes kiyimini to'g'ri tanlagan holda, klassik bluzkalarni oq qora bolgan qiyofalarda yaratdi.uning yana bir innovatsion g'oyasi kamon yoqali bluzkalardir.Ushbu ko'rinishdagi bluzkalarni yubka yoki klassik kesilgan shimlar bilan kiyish mumkin bo'lgan.

COCO uslubidagi ''Dengizchi '' bluzkasi .Ushbu bluzka kurort qiyofasini yaratish uchun mos keladi.U keng shimlar yoki ''Bermuda'' shortiklari bilan kiyiladi.

Boxo uslubidagi bluzka- asimmetrik kesilgan bluzka bo'lib, u etnik uslubining elementlarini o'z ichiga oladi. Bu uslubdagi bluzkalar harakat erkinligini ta'minlab beradi. Boxo uslubidagi bluzkalar tekis kesilgan yubkalar bilan yaxshi turadi. Bu uslubdagi bluzkalar barcha yoshdagi ayollar uchun mos keladi.



1-rasm. Ijodiy manba va konsepsiya

Ijodiy manbadan foydalangan holda bluzkaning old qismi, yeng, yoqa va

bel qismlari “Orando”’ balig’iga xos ravishda zamonaviy yechimga ega holda eskizlar ishlab chiqildi. Ushbu bluzkaga asosiy urg’u yeng, yoqa va manjetlarga berilgan bo’lib, unda “Orando” balig’ining silueti, tangachalari va mayin tovlanuvchi dumlari aks etgan (1-rasm). Baliq dumlarini bildirish sifatida Organza matosidan va boshqa qismlari uchun Atlas matosidan foydalanildi. Liboslar to’plami ishlab chiqarildi (2-rasm).



2-rasm. Liboslar to’plami

XULOSA

Bugungi kunda zamonaviy moda kundan kunga tobora yangi ko’rinishda , uslublarda aks etib bormoqda. Zamonaviy modani kashf etish uchun avvalambor modaning tarixi undagi tendensiyalarning o’zgarib borishini o’rganib chiqish lozim albatta.Kiyimlardagi zamonaviy moda yo’nalishlari o’tmish modasining ko’zgusidir .CHunki zamonaviy moda o’tgan zamonlardagi modani o’rganib chiqish natijasida yuzaga kelib chiqadi.Zamonaviy modani biz barcha uslublarda

ko’rib chiqishimiz mumkin ;Casual, Vintaj, Etno, Klassik, Sport va yana bir qancha uslublarda. Zamonaviy moda- kiyim-kechak, poyafzal, aksessuarlar, bo’yanish, soch turmagi ,turmush va madaniyatning muayyan did yoki qiziqishning ma’lum bir vaqtgacha qaror topishini o’z ichiga olgan estetik ifoda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. Пармон.Ф.М. Композиция костюма. Одежда, обувь, аксессуары. Учебник. – М.: «Триада плюс», 2002. – 312 с.
2. http://www.fashion-woman.com
3. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%BB%D1%83%D0%B7%D0%BA%D0%B0
4. https://ussur-ds106.ru/uz/istoriya-bluzki-istoriya-zhenskoi-bluzki-uslovno-vse-bluzki-mozhno-razdelit-na

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 14-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000